



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6-maxsus  
son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

***Nº S/6 (5) – 2025***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### **07.00.00- TARIX FANLARI:**

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### **08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:**

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### **09.00.00- FALSAFA FANLARI:**

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

### **10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:**

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy

kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Norov Shukrat Suvonovich</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ ПРИ УЧАСТИИ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИИ .....	8-13
<i>Jo'raqulov Boburmirzo, Masidikov Elyor</i>	
TUNKAT YODGORLIGIDAN TOPILGAN O'RSTA ASRLAR OILAVIY HAMMOMI .....	14-19
<i>Allaberganova Ro'zgul</i>	
MUSTAQILLIK YILLARIDA URGANCH SHAHRI QIYOFASINING O'ZGARISHI .....	20-23

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Dr. Abror Kucharov and Dr. Jyoti Meshram</i>	
INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: A CATALYST FOR INDIAN INVESTMENT .....	24-38
<i>Raximbayev Akmal Azatboyevich</i>	
HUDUDLARDA SANOAT AGLOMERATSIYALARINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH .....	39-46
<i>Mamajonova Nodiraxon Alisher qizi</i>	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI .....	47-57
<i>Xasanova Dildora O'ktam qizi</i>	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIGA IXTISOSLASHGAN XO'JALIK VA KORXONALAR FAOLIYATIDA ISHLAB CHIQARISH .....	58-71

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

<i>Abdusattarova Sitora</i>	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИУМ: ФИЛОСОФСКО-ПРАВОВОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ .....	72-78
<i>Kubatov Shahobjon</i>	
UYG'UNLIK G'OYASI VA IJTIMOIY DAVLAT HAQIDAGI TA'LIMOTLARNI SINTEZ QILISH MASALALARI .....	79-88
<i>Uralov Dilshodbek</i>	
ON HUMAN MORALITY AND PROFESSIONAL CULTURE IN THE ETHICAL VIEWS OF IBN SINO .....	89-93
<i>Tagaev Kamol</i>	
YANGI O'ZBEKISTONDA RAHBARLARNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY LOYIHALARNING STRATEGIK AHAMIYATI .....	94-99
<i>Xaydarova Zebiniso Nusratullayevna</i>	
EMPIRIZM, RATSIONALIZM VA KONSTRUKTIVIZM KABI TURLI EPISTEMOLOGIK NAZARIYALarda INSON MAVJUDLIGI MASALALARI .....	100-106
<i>Mamadiyarova Malika</i>	
OILAVIY QADRIYATLARNING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARI .....	107-111
<i>Xolova Umida Umedovna</i>	
MA'RIFAT VA MA'NAVİYAT UYG'UNLIGINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI: TARIXIY-FALSAFIY TAHLIL .....	112-118

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

<i>Baxramova Dilovarxon Gazanfarovna</i>	
O'ZBEK VA ISPAN TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	119-122

<i>Qozoqboyeva Dilfuzaxon Ilxomjon qizi</i>	
GENDER STEREOTYPES OF SPEECH OF UZBEK CHILDREN .....	123-128
<i>Pulatjonova Muxtar</i>	
POLITENESS STRATEGIES IN ENGLISH AND UZBEK: A PRAGMATIC AND CROSS-CULTURAL COMPARISON .....	129-132
<i>Chernova Natalya Vasiliyevna</i>	
RUS BOLALARNING NUTIQDA GENDERGA OID BELGILARNI SHAKLLANISHNING LINGVISTIK MEXANIZMLARI .....	133-136
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Komilov Avazbek</i>	
PROKURATURA ORGANLARI TOMONIDAN PROKUROR HUQUQIY VOSITALARINI QO'LLASH BO'YICHA XORIJY MAMLAKTALAR TAJRIBASI.....	137-146
<i>Rasulov Jurabek Abdusamiyevich</i>	
XALQARO HUQUQ INQIROZI: ZO'RQISH OSTIDAGI TIZIM .....	147-152
<i>Nishonov Abdulloh</i>	
ATOM ENERGIYASIDAN FOYDALANISH JARAYONIDA OBYEKTLARNI JOYLASHTIRISHDA XALQARO EKOLOGIK NORMALARNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING MILLIY QONUNCHILIKKA INTEGRATSİYASI.....	153-159
<i>Yusupjanova Gulnoza Ilxomovna</i>	
JINOYAT PROTSESSIDA SUDNING FUNKSIYASI .....	160-167
<i>Tursoatov Sodiq Xudoyor o'g'li</i>	
YUKSAK XIZMAT KO'RSATISH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZBEKİSTON QONUNCHILIGIDA IFODALANISHI MASALALARI.....	168-174
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i>	
MAHALLIY BUDJETNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI .....	175-179
<i>Парахатова Шахноза Ерназаровна</i>	
ОБРАЗЦЫ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ: ПОНЯТИЕ И ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ .....	180-193
<i>Узбекова Дильшода Тулкиновна</i>	
КЛАССИФИКАЦИЯ МЕР ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ .....	194-202
<i>Norboyev Bobur</i>	
LEGAL FRAMEWORKS FOR DIGITAL TECHNOLOGY APPLICATION IN LAND CADASTRE: INTERNATIONAL EXPERIENCES AND PRACTICES IN UZBEKISTAN .....	203-211
<i>Gafurova Shoira Baxodirovna</i>	
XALQARO JINOYAT HUQUQIDA DALILLAR INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI ....	212-216
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich</i>	
HARBIY XIZMATGA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O'QUVCHILARNING JISMONIY SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSİYALASHGAN YONDASHUVLAR: JISMONIY TARBIYA VA CHAQIRUVGA QADAR TAYYORGARLIK ASOSIDA.....	217-221
<i>Kamalova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda</i>	
KINEMATİKADAN OLIMPIADA MASALALARİ: KINEMATİK MASALALARDA YUQORI DARAJALI YECHIM YONDASHUVLARI .....	222-227

**Received:** 5 July 2025**Accepted:** 20 July 2025**Published:** 30 July 2025*Article / Original Paper***METHODOLOGICAL AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF FAMILY VALUES****Mamadiyarova Malika Tadjiyevna**

Independent researcher at the Department of Social Sciences,  
Navoi State University  
E-mail: [info@navoi.uz](mailto:info@navoi.uz)

**Abstract.** This article analyzes the theoretical and methodological essence of family values, emphasizing their role in human life, societal development, and the preservation of cultural heritage. The family is interpreted not merely as a system of kinship ties, but as a key institution for socialization and the moral-psychological development of individuals. The article highlights the central role of virtues such as mutual respect, trust, affection, and loyalty within the system of family values. It also provides a theoretical and methodological assessment of the impact of family values on child upbringing, societal stability, and the continuity of cultural heritage, ultimately evaluating them as the moral foundation of society.

**Keywords:** family, value, methodology, theory, social life, upbringing, spirituality, morality, category.

**OILAVIY QADRIYATLARNING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARI****Mamadiyarova Malika**

Navoiy davlat universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oilaviy qadriyatlarning nazariy va metodologik mohiyati, ularning inson hayoti, jamiyat taraqqiyoti hamda madaniy merosni saqlashdagi o'rni tahlil etilgan bo'lib, oila shunchaki qarindoshlik aloqalari tizimi emas, balki shaxsnинг ijtimoiylashuvi, axloqiy-ruhiy rivojlanishi uchun asos bo'luvchi muhim institut sifatida talqin qilingan. Shuningdek, o'zaro hurmat, ishonch, mehr, sadoqat kabi fazilatlarning oilaviy qadriyatlar tizimidagi markaziy o'rni qayd etilgan. Maqolada oilaviy qadriyatlarning farzand tarbiyasi, jamiyat barqarorligi va madaniy merosning davomiyligiga ta'siri nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilinib, ularni jamiyatning ma'naviy tayanchi sifatida baholaydi.

**Kalit so'zlar:** oila, qadriyat, metodologiya, nazariya, ijtimoiy hayot, tarbiya, ma'naviyat, axloq, kategoriya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI6Y2025N13>

**KIRISH**

Oila tushunchasi shunchaki qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan insonlar guruhi emas, balki o'ziga xos falsafiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan murakkab tizimdir. Aristotel o'zining "Siyosat" asarida oilani davlatning asosiy bo'g'ini deb ta'riflagan [1]. Oilada inson ijtimoiy hayotga ilk qadamlarini qo'yadi, o'zaro munosabatlar, mehr-oqibat va mas'uliyat kabi tushunchalar bilan tanishadi, o'zining shaxsiy "mikrokosm"ini yaratadi. Zamonaviy falsafa esa oila tushunchasini yanada kengroq talqin qiladi. Unda qarindoshlikdan tashqari, o'zaro mehr-oqibat, umumiy manfaatlar va qadriyatlar bilan birlashgan insonlar hamjamiyati ham oila deb qaralishi mumkin. Masalan, "tanlangan oila" tushunchasi qon bilan bog'liq bo'limgan, lekin bir-birlarini qo'llab-quvvatlovchi va birgalikda hayot kechiruvchi insonlar guruhini anglatadi.

Oilaviy qadriyatlar deganda oila a'zolari muhim deb biladigan va avloddan-avlodga o'tadigan e'tiqodlar, tamoyillar, maqsadlar va ideallar tizimi tushuniladi. Bu tizim ijtimoiy-

madaniy muhit, urf-odatlar, an'analar, diniy qarashlar va tarixiy taraqqiyot ta'sirida shakllanadi. Gegel falsafasida ta'kidlanganidek, oilaviy qadriyatlar doimiy ravishda o'zgarib, takomillashib boradi.

Oila inson uchun ijtimoiy qadriyatlarni shaxsiylashtirish maydoni, o'ziga xos "mikrokosm" vazifasini bajaradi. Bu jarayon "insonning o'zini anglashi, o'z o'rnini topishi va jamiyatda munosib mavqega ega bo'lishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Inson jamiyatda qabul qilingan axloqiy va ijtimoiy normalarni, Kant falsafasidagi kabi, o'zining "kategoriya imperativi", ya'ni vijdoni va aql-idroki prizmasidan o'tkazadi, ularni ongli ravishda qabul qiladi, moslashtiradi yoki rad etadi. Bu orqali u o'zining shaxsiy "Men"ini yaratadi, individualligini anglaydi, rivojlantiradi va mustahkamlaydi. Ayni paytda, oilada shaxsning ijtimoiy lashuvi jarayoni ham sodir bo'ladi, ya'ni u ijtimoiy rollarni o'rganadi, jamiyatda o'zini tutish qoidalarini egallaydi va ijtimoiy munosabatlarga kirishadi" [2].

### **METODOLOGIYA**

Qadriyat masalalarini o'rganishga A.G.Zdravomislov katta hissa qo'shdi, u qadriyatlarni shaxsning faoliyati va rivojlanishini qiziqish va ehtiyojlar sifatida belgilaydigan bunday omillarning murakkab dialektik o'zaro ta'sirining yakuniy mahsuloti deb hisobladi [3]. U quyidagi qadriyat zanjirini ishlab chiqdi: "ehtiyojlar manfaatlarga aylanadi, manfaatlar tegishli rivojlanishga ega bo'lib, qadriatlarga aylanadi" [4]. A.G. Zdravomislovning qadriyat yo'naliishlari jamiyatdagи inson xatti-harakatlarini tartibga solishning eng yuqori darajasi deb hisobladi, bunda inson faoliyati eng yuqori tartib ehtiyojlar (ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar) bilan belgilanadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Hozirgi tez o'zgaruvchan dunyoda, ayniqsa, jadal rivojlanayotgan ijtimoiy tizimlarda inson doimiy ravishda yangi sharoitlarga moslashishga majbur. Bu esa qadriyatlarning qayta baholanishiga olib keladi. Ijtimoiy institutlardagi ziddiyatlar va nizolarni yechish jarayonida ham qadriyatlar tizimi qayta ko'rib chiqiladi. Bu kabi moslashuvchanlik va dinamik qadriyatlar tizimi insonning shaxsiy o'sishi va jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarurdir. Qadriyatlar insonni nafaqat ichki dunyosida, balki tashqi olamda ham yo'naltiruvchi mayoq vazifasini bajaradi.

I.M.Popovaning so'zlariga ko'ra, qadriyatlarni ehtiyojlarning oddiy davomi deb hisoblash mumkin emas. Uning fikricha, qadriyatlar ehtiyojlarning shakllanishiga ham ta'sir qiladi va shu bilan inson tafakkurining qadriyat sohasi faoliyatining yopiq siklini shakllantiradi.

Tarixiy kontekstni o'rganish oilaviy qadriyatlarning evolyutsiyasi va o'zgarishini va ularning ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar bilan munosabatlarini tushunishga yordam beradi.

Oilaviy qadriyatlar inson shaxsiyatining ko'p qirrali rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu qadriyatlar jismoniy, aqliy, estetik, mehnat, axloqiy va boshqa sohalarni qamrab olib, insonning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Qadimgi yunon faylasuflari bu jarayonni "arete" – fazilatlarga intilish, deb ta'riflashgan bo'lsa, oilaviy qadriyatlar insonning "eudaimonia" siga – baxt-saodatga erishish yo'lidagi muhim poydevor vazifasini o'taydi.

Inson shaxsiyati rivojida, uning dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va qadriyatları shakllanishida oila muhiti beqiyos ta'sir kuchiga ega. Aristotel ta'biri bilan aytganda, oila "davlatning asosiy bo'g'ini" bo'lib, unda inson ijtimoiy hayotga ilk qadamlarini qo'yadi, o'zaro munosabatlar, mehr-oqibat va mas'uliyat kabi tushunchalar bilan tanishadi. Bu jarayonda oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro mehr-muhabbat, ishonch va hurmat, xuddi Platonning ideal

davlatidagiadolat, donolik va jasorat singari muhim rol o'ynaydi. Hech qanday ijtimoiy ta'lismizimi, hatto eng ilg'or pedagogik texnologiyalar ham, oilaning bu betakror, tabiiy va chuqur ta'sirini to'liq qoplay olmaydi. Zero, oiladagi tarbiya – bu shunchaki bilim berish emas, balki avloddan avlodga o'tib kelayotgan an'analar, urf-odatlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va hayot tajribalarining uyg'unlashuvi, ong ostiga singishi va yurakdan yurakka o'tishi natijasida shakllanuvchi murakkab jarayondir.

L.P. Fominaning ta'kidlashicha, "oilaviy qadriyatlar ikki asosiy turga bo'linadi: o'zini o'zi ta'minlovchi va instrumental qadriyatlar. O'zini o'zi ta'minlovchi qadriyatlarga oilaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, qarindosh-urug'lar, yaqinlar va umuman jamiyat oldidagi fuqarolik burchi va mas'uliyati, farzandlar, turmush o'rtog'i va ota-onalarga nisbatan mehr-oqibat, hurmat, sadoqat, g'amxo'rlik kabi umuminsoniy qadriyatlar kiradi. Bu qadriyatlar insonning kundalik hayotida, xulq-atvorida, munosabatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi va uning shaxsiyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Instrumental qadriyatlar esa qadriyatli munosabatlarni o'rnatish, ijobiy fazilatlarni shakllantirish, bilim olishga intilish, ko'nikma va malakalarni egallah, ya'ni insonning ijtimoiy va intellektual kapitalini boyitishga qaratilgan qadriyatlarni o'z ichiga oladi" [5]. Bu qadriyatlar insonning ota-ona oilasida shakllana boshlaydi va butun hayoti davomida ta'limgaz-tarbiya, ijtimoiy muhit va shaxsiy izlanishlar orqali rivojlanib, takomillashib boradi.

Oilaviy qadriyatlarning mohiyatini anglash uchun oila a'zolari qanday qadriyatlarni ustuvor deb bilishi va ularni hayotda qanday qo'llashga intilishlarini tushunish muhimdir. Sevgi, o'zaro tushunish, ishonch, hamjihatlik, hurmat, mas'uliyat, sadoqat kabi fazilatlar oilaviy qadriyatlarning asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Konfutsiy ta'limotida ham bu fazilatlarga katta e'tibor berilgan [6].

Mazkur qadriyatlar oilaviy munosabatlarni mustahkamlaydi, oila a'zolari o'rtasida uyg'unlik yaratadi va ularga Kant falsafasidagi "axloqiy imperativ"ni – burch va mas'uliyatni anglatadi. Oilaviy qadriyatlarni chuqur anglash oilaga o'zligini saqlab qolish, jamiyatda duch keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tish, ma'naviy yetuklikka erishish va baxtli hayot kechirishda ko'maklashadi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning ma'naviy va axloqiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Farzandlar tarbiyasi oila muhitida boshlanadi. Ota-onalarning har bir so'zi, harakati va kundalik xulq-atvori bolalar uchun bevosita ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi. Ota-onaning mehnatsevarligi, halolligi,adolatparvarligi, kattalarga hurmat va kichiklarga g'amxo'rlik kabi xatti-harakatlari bola ongiga singib boradi. Bu qadriyatlar bolaga faqat qoidalarga rioya qilishni emas, balki jamiyatda munosib o'rin egallahni, hayot yo'lini to'g'ri belgilashni o'rgatadi. Shunday qilib, oila farzand shaxsiyati shakllanishida asosiy tayanch nuqtaga aylanadi.

Oilaviy qadriyatlarning jamiyat barqarorligiga qo'shgan hissasi ham katta. Sog'lom va mustahkam oilalar – bu jamiyatning mustahkam poydevoridir. Oilaviy qadriyatlarga sodiq bo'lgan shaxslar o'zaro hurmat, hamjihatlik va mas'uliyat bilan yashaydilar. Bunday odamlar o'z atrofidagilarga ijobiy ta'sir ko'rsatib, jamiyatda tinchlik va osoyishtalik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Zero, axloqiy jihatdan yetuk oilalar jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.

Bundan tashqari, oilaviy qadriyatlar milliy madaniyat va tarixiy merosni saqlab qolishda ham beqiyos ahamiyatga ega. Oila doirasida asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, marosimlar, milliy bayramlar hayotiy mazmun kasb etadi. Har bir avlod bu qadriyatlarni o'z

oilasida amalda qo'llab, keyingi avlodga yetkazadi. Shu tariqa, oila xalqning madaniy xotirasini saqlovchi, uni asrab-avaylovchi va davom ettiruvchi ijtimoiy institutga aylanadi.

Oilaviy qadriyatlar – bu har bir oila a'zosi hayotida yo'l boshlovchi ma'naviy kompas bo'lib xizmat qiladigan, shaxsiy munosabatlarni tartibga soluvchi, jamiyatdagi barqarorlik va totuvlikni ta'minlovchi ijtimoiy hodisadir. Xususan, o'zaro munosabatlarga asoslangan qadriyatlar oilaviy hayotda mustahkam zamin yaratadi va uning ichki muhitini belgilab beradi.

Avvalo, hurmat oilaning eng muhim tayanchlaridan biridir. Oila a'zolarining bir-birini qadrashi, fikrlarini inobatga olishi va shaxsiy chegaralarini tan olishi orqali hurmat tamoyili shakllanadi. Sharq xalqlarida bu qadriyat chuqur ildiz otgan bo'lib, ayniqsa kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish urf-odat sifatida avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Ishonch esa oilaviy rishtalarning barqarorligini ta'minlovchi nozik, ammo kuchli boylikdir. Oila a'zolarining bir-biriga chin dildan ishonishi, ochiqlik va halollikni mustahkamlaydi, bu esa barcha muammolarni yelkama-yelka yengishga yordam beradi.

Qiyin vaziyatlarda o'zini ko'rsatadigan yana bir qadriyat bu qo'llab-quvvatlashdir. Oila a'zolari har qanday holatda bir-biriga yelkadosh bo'la olsalar, bu oilaning ichki birligidan va chin insoniy qadriyatlarga sodiqligidan dalolat beradi. Ayniqsa, og'ir hayotiy sinovlarda bu fazilatning ahamiyati beqiyosdir. Shuningdek, oilaning asosi bo'lgan er-xotin munosabatlarida sadoqat tamoyili katta rol o'ynaydi. O'zaro vafodorlik va majburiyatlarga sodiqlik har qanday oilani mustahkam qiladi. Bu nafaqat sevgi, balki ishonch, hurmat va mas'uliyatni o'zida mujassam etgan fazilatdir.

Oilani iliqlik bilan to'ldiruvchi eng nafis qadriyatlardan biri – bu mehr va muhabbatdir. Oila a'zolari orasidagi iliq tuyg'ular, g'amxo'rlik, samimiylik va sadoqat oilaning mehrli muhitda shakllanishiga xizmat qiladi. Aynan shu tuyg'ular insonni ichki barqarorlik va baxt sari yetaklaydi. Hamjihatlik esa umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilishga undaydi. O'zaro yordam, mas'uliyatni baham ko'rish orqali oila ichidagi muammolar yengillashadi, farovonlikka erishish osonlashadi. Bu qadriyat – oilaning jamoaviy ruhini mustahkamlovchi asosiy omillardandir.

Zamonaviy oilada ochiqlik fazilati ham muhimdir. Har bir a'zo o'z his-tuyg'ulari, fikrlari, muammolari haqida ochiq gaplasha olishi kerak. Bu esa oiladagi ishonch va samimiy muhitni kuchaytiradi, tushunmovchiliklarni bartaraf etadi. Nihoyat, har qanday munosabatda bo'lgani kabi, oilaviy aloqalarda ham kechirimlilik zarur. Har bir inson xato qiladi. Ularni kechira olish, sabr va bag'rikenglik bilan munosabat qurish oilaning uzoq umr ko'rishiga xizmat qiladi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oilaviy qadriyatlar insonning hayot yo'lini yorituvchi mayoq, uning ma'naviy kompasidir. Ular insonni to'g'ri yo'ldan yurishga, ma'naviy boylikka erishishga, ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga, o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga va baxtli hayot kechirishga undaydi. Oila – bu jamiyatning asosi, uning kelajagi garovidir.

Oilaviy qadriyatlar – bu jamiyatning eng muhim bo'g'ini bo'lgan oilaning barqarorligi, farovonligi va rivojlanishi uchun xizmat qiladigan axloqiy me'yorlar, e'tiqodlar, munosabatlar va urf-odatlar majmuidir. Ular avloddan avlodga o'tib, oila a'zolarining o'zaro munosabatlarini tartibga soladi, ularning ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi va jamiyatda o'z o'rnini topishlariga yordam beradi. Oilaviy qadriyatlar nafaqat har bir oilaning o'ziga xosligini belgilaydi, balki butun xalqning madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi.

**Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Здравомыслов В.М., Арутюнян М.Ю. Экономические стратегии семей, оказавшихся в кризисном положении. // Социально-политический журнал. 1999. №8.
2. Лебедь О. Л. Качественный анализ образа семьи по материалам прессы. М., 2003.
3. Фомина Л.П. Понятие и типы ценностных ориентаций. Л., 1976.
4. Ахмадеев А.А., Ширяева А.А. Социальная адаптация в контексте семьи. Социально-философский анализ. Уфа: БГУ, 2001.
5. Выжлецов Г.П. Аксиология культуры. СПб., 1996.
6. Каражанова Т.М. Ценностные ориентации работающих женщин и использование времени. // Социс. 2003. №3.
7. Карцева Л.В. Об оценке состояния современной российской семьи: от катастрофизма к субъектоцентризму. Казань, 2004.
8. Халматова М. Оиласвий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси. Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
9. Халматова М., Сафаева С. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жиҳатлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. Б.162.
10. Хусеинова А.А. Фуқаролик жамияти ва аёллар. – Бухоро, 2009. Б.88.
11. Убайдуллаева Р.А. Семья в Узбекистане. –Тошкент: Ижтимоий фикр, 2012.Б.164.
12. Анцупов А.Я., Мипилов А.И. Конфликтология. Учебник. - М., 2000.
13. Асмолов А.Г. Деятельность и установка. - М., 1979.
14. Афанасьева И.Г. Социалистические ценности и ценностные ориентации личности. М., 1986.
15. Барсукова С.Ю. Сущность и функции домашней экономики, способы измерения домашнего труда. // Социс. 2003. №12.
16. Барсукова С.Ю., Радаев В.В. Легенда о тендере. Принцип распределения труда между супружами в современной городской семье. // Мир России. 2000. №4.
17. Turdiev, B. S. (2024). Balancing national and universal perspectives: the dialectical dynamics in society's ideosphere. Asian Journal of Basic Science & Research, 6(3), 59-65.
18. Sobirovich, T. B. (2024). The national idea as a driving force behind ideospheric transformation in Uzbekistan: Exploring its implications and impact. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 8(3), 170-176.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº S/6 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).